



**O'QUVCHILAR KREATIVLIGINI OSHIRISHDA TEXNOLOGIYA  
TA'LIMINING O'RNI**

**Kambarov Nodirjon Sattarovich**

*University of Business and Science o'qituvchisi p.f.f.dok (PhD).*

*Gmail: [nodirjonkambarov2@gmail](mailto:nodirjonkambarov2@gmail)*

*Tel: +998939447261*

**Muxtorova Gulchehraxon Muhsinjon qizi**

*University of Business and Science nodavlat*

*oliy ta'lim muassasasi Boshlang'ich ta'lim*

*yo'nalishi talabasi.*

*Email: [muxtorovagulchehraxon@gmail.com](mailto:muxtorovagulchehraxon@gmail.com)*

*Tel: +998 906902081*

**Annotatsiya:** Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining pirovard maqsadi shaxs harakterining asosiy hislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

**Kalit so'zlar:** Mehnat tarbiyasi, kreativ, texnologiyaning maqsat va vazifalari, kasb, hunar.

**THE ROLE OF TECHNOLOGY EDUCATION IN ENHANCEMENT  
OF STUDENTS' CREATIVITY**

**Kambarov Nodirjon Sattarovich**

*University of Business and Science teacher p.f.f.doc (PhD).*

*Gmail: [nadirjonkambarov2@gmail](mailto:nadirjonkambarov2@gmail)*

*Phone: +998939447261.*

**Mukhtarova Gulchehrakhan Muhsinjan** University of Business and Science is non- governmental higher education institution Primary education student of the department.

*Email: [mukhtorovagulchehraxon@gmail.com](mailto:mukhtorovagulchehraxon@gmail.com)*

*Phone: +998 906902081.*

**Annotation:** It is necessary to organize labor education in such a way that it helps a person to be conyent with the labor process and its result. The ultimate goal of labor education is the formation of the individuals need for labor as the main character trait.



**Keywords:** Labor education, kreativ goals and tasks of technology, profession, craft.

## **РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ КРЕАТИВНОСТЬ СТУДЕНТОВ**

**Аннотация:** Необходимо организовать трудовое воспитание таким образом, чтобы оно помогало человеку обрести удовлетворение от процесса труда и его результата. Конечной целью трудового воспитания является формирование у личности потребности в труде как основного свойства характера.

**Ключевые слова:** Трудовое воспитание, креатив, цели и задачи техники, профессии, ремесла.

### **KIRISH**

Bugungi kunda yurtimizda barkamol shaxs tarbiyasiga, darslar samaradorligiga, o'quvchilar intellektual salaohiyatiga va shu bilan birga o'quvchilar kreativligiga bo'lgan e'tibor kuchaymoqda. Kelajagi qanday bo'lishi o'quvchilarimizni har tomonlama bilimli, salohiyatli, ijodkor, ma'nan yetuk bo'lib tarbiylanishlariga bog'liq. O'quvchilar bunday sifatlarga ega bo'lishlari uchun ularning erkin rivojlanishi, ijodiy bunyodkorligiga keng imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berish lozim. Haqiqatan ham hozirgi kunda yurtimizda shunday muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslar samaradorligiga erishish va buning uchun turli shakl metodlardan hamda ilg'or xorij texnologiyalaridan foydalangan holda darslar tashkil qilish shu kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu kreativ shaxsni tarbiyalashning muhim omillardan biridir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI:**

O'quvchilar kreativligini oshirish uchun eng avvalo, darslar samaradorligi erishish va darslarda turli shakl va metodlardan foydalanish borasida mutaxassislardan Sanaqulov X. Xodiyeva, D. Satbayeva, RMavlonova, N.Abdullaev, A. Madvaliyev, H Orifjanof, K.K. Sultonova, R.A.Mamurova, O.Goroxova, R. Ogluzdina, R.Hasanov, M.Tilavov, H.Egamovlar o'rganganlar hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ular texnologiya darslarini qiziqarli va samararali tashkil etisda turli shakl va metodlardan foydalanish yo'llari borasida tadqiqot olib borib, o'z tavsiyalarini berdilar.

Xorij olimlaridan I.A.Vorobey, I.Perevertin, L.Maltsevo, N. Shumulleyevich N.M. Shumulleyevich, N.B.Xolezova, N.A. Kurochkina kabi pedagog olimlar ham ilmiy izlanishlar olib bordilar.



## **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilar kreativligini oshirishga qaratilgan fikrlar berilgan. Turli shakl metodlardan hamda ilg'or xorij texnologiyalaridan foydalangan holda darslar tashkil qilish, darslar samaradorligiga erishish va bu orqali barkamol shaxsni tarbiyalash, o'quvchi-yoshlarni har tomonlama etuk, kreativ shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan vazifalar muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Ta'lim jarayonlarida turli qiziqarli metodlarni qo'llash, rivojlantirish mezonlari tahlili qilindi. Kreativlikni oshirish bo'yicha yondashuvlar o'rganildi.

## **OLINGAN NATIJALAR, TAHLILLAR VA QARASHLAR**

Boshlang'ich sinf "Texnologiya" darslari o'quvchilar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar voyaga yetib, qaysi kasbni egallamasin, kim bo'lmasinlar albatta texnologiya fanidan olgan bilim va ko'nikmalari ularga ijtimoiy hayotda, albatta, naf keltiradi. "Texnologiya" darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtiradilar. Mahsulot ishlab chiqarish, turli o'yinchoqlar yasash va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlashtirish, o'z-o'ziga xizmat ko'rsaga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Texnologiya - ilmiy bilimlarni inson hayotida amaliy maqsadlar yo'lida yo inson muhitini o'zgartirish va manipulyatsiya qilish maqsadida qo'lanish. U shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy maqsadlarga erishish uchun (ayniqsa, bunda jarayon qaytalanishi alohida ahamiyatga ega) qo'llanishi sifatida tariflanadi.

"Texnologiya" fani ham qadimgi yunonistonda paydo boldi va u ikkita so'z - "texne" - san'at va "logos" - o'rganish - dan iborat.

O'quvchilar kreativligini oshirishda "Texnologiya" fani etakchi o'rin tutadi. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi fanining maqsadi talabalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Texnologiya" fanini Davlat talim standarti (DTS) asosida tashkil etish va o'qitish, pedagogika, psixologiya va maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirgan holda talim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish yollarini bo'lajak texnologiya ta'lim o'qituvchilarni metodikasiga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

**Kreativlik nima?** Kreativ bo'lish mohiyatni yorqin ranglarda ko'rish va ko'rsata bilish demakdir.

### **Kreativlikka xos xususiyatlar:**

- ijodkorlik;
- yaratuvchanlik;
- tashabbuskorlik;
- iqtidorni namoyish etish qobiliyati



**Kreativ** (ing. create) - yaratish, kreativlik (creative) - yaratuvchi, ijodkor tushunchalarini anglatadi va yangi g'oyalarni ishlab chiqarish, ijodkorlik qobiliyati ma'nolarini beradi.

Texnologiya darslarida amaliy ishlarni bajarib boris jarayonida o'quvchilarda mehnatsevarlik, tejamkorlik, ijodiy yondashish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash bilan bir qatorda, kasblar haqida tushunchalar ham berib boriladi.

O'quvchilar kreativligini oshirishda quyidagi ish turlari bo'yicha ishlar amalga oshiriladi.

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Turli materiallar bilan ishlash.
  - a) *Applikatsiya va mozayka ishlari.*
  - b) *Loy va plastilin bilan ishlash.*
  - v) *Tabiiy materiallar bilan ishlash.*
3. Gazlama bilan ishlash.
4. Loyihalash va modellar ishlari.
5. Qishloq xo'jalik ishlari.

O'quvchilar kreativligini oshirishda LEGO Education konstruksiya to'plamlaridan ham foydalaniladi. LEGO Education konstruksiya to'plamlarining keng assortimenti barcha yoshdagi bolalarga maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib o'smirlargacha robototexnika bilan shug'ullanish imkonini beradi. LEGO Education o'quv to'plamlari bilan mashg'ulotlarda bolalar haqiqiy mexanizmlar, tirik organizmlar va mashinalarning ishchi modellarini quradilar, tabiiy fanlar bo'yicha tajribalar o'tkazadilar, informatika, algoritmlash va robototexnika asoslarini o'zlashtiradilar, shu bilan birga matematika va fizika bo'yicha bilimlarini mustahkamlaydilar va ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. O'qituvchilar ushbu konstruktor yordamida quyidagi ta'lim natijalariga erishishlari mumkin: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish; sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish; eksperimental fikrlashni rivojlantirish. To'plamning o'zi 158 elementdan iborat: Lego qismlari, Lego USB Hub, motor, harakat va egilish sensorlari. Lego USB Hub kompyuteringizga USB ulagichi bilan ulanadigan kalit bo'lib, Lego Education WeDo dasturi orqali sensorlar va motorlarni boshqarish imkonini beradi. Dastur bir vaqtning o'zida uchta kalit bilan ishlashi mumkin.

Ta'lim robototexnikasi nuqtai nazaridan ushbu to'plam o'quvchilarni algoritmlash uchun asos yaratadi. Bolalar konstruktor dasturida oddiy model algoritmlar yaratadilar.



O'quvchilar ijodkorligini oshirishda gazlamalar bilan ishlashning ahamiya kattadir.

Tikish darslarida beriladigan texnikaga oid bilim bolalarning bilim doiralarini kengaytiradi. Bolalarning tasavvurlarini insoniyat hayotida muhim o'rinni egallovchi hamda keng tarqalgan materiallar va ularning xususiyatlari, sanoatning gazlama va tolali materiallar ishlab chiqaruvchi tarmoqlari, materiallardan texnika va insonning madaniy hamda maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish kabilar bilan boyitadi. Gazlama bilan ishlashda o'quvchilar amaliy mashg'ulotlar jarayonida turli asbob hamda moslamalar, asosan qaychi va igna, o'lchov asboblari bilan ishlash malakalarini egallaydilar. Ular bu asbob va moslamalarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Gazlamalar bilan ishlash mashg'ulotlari jarayonida turli narsalar yasaydilar va tikadilar. Gazlamalar bilan ishlash ham o'quvchilar kreativligini oshirishda.



Gazlama bilan ishlaganda mehnat madaniyati, o'z ishini rejalashtirish hamda tashkil etish ko'nikmasi rivojlanadi va takomillashadi. Bolalarning didlari ham jiddiy o'sadi va takomillashadi. Gazlama, ip va boshqa materiallarni bir-biriga moslab tanlash o'quvchilarni ranglarning birikishi, gazlama va ipning rangi bir-biriga muvofiq kelishiga e'tibor berishga o'rgatadi.

O'quvchilar kreativligini oshirishda turli tabiiy materiallar bilan ishlashning ham o'rni muhimdir. O'quvchilarda turli tabiiy materiallar bilan ishlash alohida qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, o'quvchilar loy, plastilin va tabiiy materiallar, jumladan, daraxtlarning shoxlari, chinor urug'lari, turli qurigan barglar, daraxt po'kaklari, yelimlaridan





foydalanib qushlar, jonivorlar, ertak ishtirokchilarining shakllarini qiziqib yasaydilar. O'z tasavvurlaridagi personajlar bilan boyitadilar.



Yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning texnik tayyorgarligini takomillashtirish g'oyasi muhim vazihalardan biri hisoblanadi. Ta'lim robototexnika asoslarini o'qitilishi o'quvchi va yoshlarning o'z taqdirini o'zi belgilashini shakllantirib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ishlashning muhim elementi va vositalariga aylanib

bormoqda va texnik va muhandislik tafakkurini shakllantirishni ta'minlamoqda. Bu esa texnik ijodkorlikning innovatsion yo'nalishi - robototexnikani rivojlantirish uchun qulay muhit shakllantiradi. Robototexnika - bu robotlarni qurish, ulardan foydalanish va ulardan foydalanish, shuningdek ularni boshqarish, sezish va ma'lumotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanadigan mexanika, elektrotexnika va elektron muhandislik va informatika fanining birlashtirilgan sohasi.

Boshlang'ich sinflarda loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning ijodkorligini oshirish, haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o'rgatish ularda bu qadimiy hunarga qiziqishlarini oshirish nazarda tutadi. Bunday mashg'ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o'tkazish har bir o'qituvchidan mazkur soha bo'yicha ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar o'z ustlarida ko'proq ishlashlari, xaykaltaroshlik va kulolchilik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo'ladi.



**Haykaltaroshlik** tasviriy san'at ichida eng qadimgi san'atdir. San'atning haykaltaroshlik turining xususiyati tasvirning hajmli plastik formasidir. Odamlar hali yozish va surat solishni bilmagan chog'lardayoq yopishqoq materiallardan odam va hayvon gavdasiga

o'xshash shakllarni yasashga harakat qilganlar.

**Haykaltaroshlikning bosh ob'ekti** - odamdir. Haykaltaroshlik odamni turli-tuman kayfiyatda ifodalay oladi: odamning figurasini, chehrasini, murakkab kechinmalarini, kayfiyat, xarakterni ko'rsatishi, odamning ichki dunyosi, intilishi, ehtirosi va umidlarini hikoya qilishi mumkin.

O'quvchilar ijodkorligini oshirishda applikasiya ishlarining ham roli kattadir. Applikasiya - badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bu applikasiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yin uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar, shu kabilarni



yaratishdan keng qo'llash imkonini beradi. Applikatsiya so'zining ma'nosi, qirib olib yopishtirish demakdir. Bu usulda qog'oz, mato, charm, somon, quritilgan o'simliklar, urug'lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumki.



### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf texnologiya darslari jarayonlarida O'quvchilar kreativligini oshirishda turli turli materiallar bilan ishlash orqali turli ijodiy ishlar tayyorlashga o'rgatiladi. Ularni fazoviy tasavvurlarini boyitish, loyihalash, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik xislatlarini shaklantirish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi. Texnologiya darslarini qiziqarli, turli shakl va metodlardan keng foydalangan holda olib borish lozimdir.

Bunday darslar bolalar xotirasida umirbod saqlanib qolsin. Albatta unda boshlang'ich sinf texnologiya fani o'qituvchidan izlanish va pedagogik mahorat talab qiladi. Boshlang'ich sinf texnologiya fani o'qituvchisi oldiga ilg'or xorij pedagogik texnologiyalarini, tasviriy san'at va xalq amaliy san'atlari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi, tarbiya jarayonlarida foydalanish vazifasini qo'yadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sanoqulov X.R, Xodieva D.P. Satbaeva "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Darslik. T.;TDPU. 2015-yil.
2. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.B "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma. 2007-yil TDPU.
3. Matlab Tilavova "Mehnat va uni o'qitish metodikasi" Toshkent "Turon Zamin Ziyos" 2017.
4. Matlab Tilavova " Texnologiya va uni o'qitish metodikasi". Toshkent "Muharrir nashriyoti". 2019
5. "Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan". Ilmiy-ommabop risola. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2011.yil